

BUXORO AMIRLIGIDA ICHKI SAVDO, BOZORLAR, SAVDO MARKAZLARI.

Shukurov Rustam.Juraqulovich.
*Nizomiy nomidagi O‘zMPU, tarix
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
“Tarix” kafedrasida o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligidagi ichki savdo munosabatlari, bozorlar va ularning amirlik iqtisodiy hayotidagi o‘rni va ahamiyati masalalari kabilar yoritib berilgan. Shuningdek, manbalarda bozorlar va ulardagi savdo jarayonlari haqidagi ma’lumotlar, Buxorodagi markaziy bozorlar va ularning joylashuvi, ularda savdo va tovarlarning ixtisoslashuvi kabilar ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, amirlik, iqtisod, savdo, bozor, tovar, manbalar, mahsulot, timlar, rastalar, iqtisodiy markazlar.

ВНУТРЕННЕЕ ТОРГОВЛЯ, РЫНОК, И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕНТРЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ.

Shukurov Rustam.Juraqulovich.
*Национальный педагогический университет
Узбекистана имени Низами, доктор
философии по историческим наукам (PhD).*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы внутренних торговых отношений в Бухарском эмирате, рынки и их роль и значение в экономической жизни эмирата. Также приводятся некоторые краткие сведения из источников о рынках и торговых процессах на них, основные центральные рынки Бухари и их расположение, а также о специализации торговли и товаров на них.

Ключевые слова: Бухара, эмират, экономика, торговля, рынок, товары, источники, изделия, торговые ряды, экономические центры.

DOMESTIC TRADE, MARKET, AND ECONOMIC CENTERS IN THE EMIRATE OF BUKHARA.

Shukurov Rustam.Juraqulovich.
*National Pedagogical University of
Uzbekistan named after Nizami
Doctor of Philosophy in Historical
Sciences (PhD).*

Annotation: This article examines the issues of internal trade relations in the Emirate of Bukhara, markets and their role and importance in the economic life of the emirate. It also provides some brief information from sources about the markets and trade processes in them, the main central markets of Bukhari and their location, as well as the specialization of trade and goods in them.

Keywords: Bukhara, emirate, economy, trade, market, goods, sources, products, shopping malls, economic centers.

1. KIRISH.

Buxoro amirligi hukumdorlari va aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor qaratishgan. Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning tarqqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos bo'lgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining ko'pgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e'tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi.

Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud bo'lgan pul muomalasining o'rni katta edi. Xususan, mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatilgan bo'lib, muomalada asosan uch turdagi – tillo, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud edi. Shahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va to'lovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan. Buxoro amirligida qo'shni davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Qashg'ar va ayniqsa Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlari ayniqsa muhim o'rin tutgan edi. Ko'chmanchi qozoqlar amirlik bozorlariga namatlar, jun, teri, go'sht va sut mahsulotlari keltirgan bo'lsalar, dehqonlar va hunarmandlar qozoq dashtlarini oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar, kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-kechaklar, paxta matoolari bilan ta'minlaganlar [1.145-147]. Amirlikda turkman gilamlari va otlariga talab katta bo'lgan. Turkmanlar amirlik bozorlaridan boshqa mahsulotlar bilan birga ko'proq har xil matolar xarid qilganlar. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxon) muhim o'rin tuta boshladi. Rossiyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari – teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak tolalar, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, cho'yan, mis, qo'rg'oshin keltilgan [2.302-303].

2. ADABIYOTLAR TAHLILI.

Buxoro amirligida iqtisodiy soha ahvoli, sug'orish ishlari va suv bilan bog'liq bo'lgan muammolar, qishloq xo'jaligi va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-iqtisodiy munosabatlar masalalarini yoritib bergan bir qator ilmiy ishlar

M.A.Solixov [3], A.Sh.Rozinov [4], G.N.Tursunova [5], Muhammadrizo Hamidiy [6], S.Islomov [7], V.V.Dubovitskiy [8], X.Davronov [9], X.A.Kayumova [10] kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ularda Buxoro amirligining XVIII asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan iqtisodiy sohaga oid masalalar, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi iqtisodiy sohalariga sanoat kapitalining kirib kelishi va uning amirlik iqtisodiy hayotiga, xususan, hunarmandchilik ishlab chiqarishi, pul muomalasi, bozorlar faoliyatiga ta'siri masalalari yoritib berilgan.

3. MUHOKAMA.

Amirlik hukumati chet ellik va rus savdogarlarining Buxoro bozoriga shiddat bilan yopirilib kelayotganliklarini, natijada mahalliy savdogarlarni siqib chiqarilayotganini nazarda tutib, buxoroliklar manfaatlarini muxofaza qilish maqsadida bir qancha chora tadbirlarni ko'rdi. Zakot qorako'lga ham joriy etila boshlandi. Rus savdogarlariga 2.5% miqdorida soliq solindi, xorijliklar esa, har 10 ta qorako'l terisi uchun 500 so'm miqdorida qo'shimcha soliq to'laydigan bo'ldilar. Buxorolik savdogarlarga boshqa mamlakatlarning savdo firmalari bilan raqobatda tenglashishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro savdo va diplomatik aloqalari ancha rivojlandi. Bunda 1774-1776, 1779-80 yillarda Ernazar Maqsudov boshchiligida va 1797-yildagi Polvonquli qo'rchi elchiliklari katta ahamiyat kasb etdi. XIX asr boshlarida Rossiya-Buxoro aloqalari ancha faollashdi. Bu XIX asrning 20-yillarida O'rta Osiyoga suqilib kirishga harakat qilayotgan inglizlar bilan ruslar o'rtasidagi raqobatning keskinlashuviga olib keldi. Amirlik qo'shni xonliklar Afg'oniston, Hindiston, Eron davlatlari bilan ham savdo aloqalari olib bordi. Yirik savdo-sotiq markazi bo'lgan Buxoroda 1848 yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko'plab bozorlar mavjud bo'lgan [11.253].

Buxoro amirligi haqida o'z sayohatnomalarida bir qator ma'lumotlarni yozib qoldirgan A.Byornsning yozishicha, Buxoro amirligida savdo ishlariga davlat tomonidan juda katta e'tibor qaratilgan va uning rivojlanishi uchun ko'p imkoniyatlar yaratib berilgan, hech bir davlatning hukmdori Buxoro amiri

kabichalik savdo-sotiqni qo'llab quvvatlay olmaydi. Amirlikda bozorlar savdo va iqtisodiy munosabatlarning asosiy markazlari edi. Buxoro shahridagi karvonsaroylarda esa Yevropadan tortib Uzoq Sharq, Xitoy va Hindistongacha bo'lgan davlatlar savdogarlari o'z mollari bilan joylashib, savdoni amalga oshirish bilan birga bu yerdan nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va harbiy sohalarga oid ham ko'plab ma'lumotlarni olish mumkin edi [12. 231-236].

O'rta Osiyo shaharsozligida asosiy savdo-iqtisodiy markazlari sanalgan bozorlarning asosiy yo'llar kesishmasida joylashganligi shahar aholisi uchun qulaylik yaratish bilan eng shahar qurilishi rejasining muhim jihatlaridan biri bo'lib, u yerlarda gumbazli o'tish joylari, timlar barpo etilgan bo'lib, binolar ichida esa savdo rastalari o'rin olganligini ko'rish mumkin. Bunday savdo markazlari va bozorlarning joylashuvi Samarqand, Shahrisabzda ham mavjud bo'lib, Buxoro shahrida esa beshta shunday markaz barpo etilgan edi. Samarqand va Shahrisabzda bunday savdo markazlari hisoblangan bozorlarni "Chorsu" deb yuritilgan bo'lsa, ular Buxoroda "toq" deb nomlangan. Buxorodagi Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon kabilar ham ko'chalarni tutashtirgan holda, savdo markazlari vazifasini bajarganlar. Ayniqsa, ularning eng janubida joylashgan Toqi sarrofon sharq tomondan Qarshi darvozasidan boshlangan yo'lni g'arb tarafdagi Qorako'l darvozasidan keladigan yo'l bilan tutashgan buxoro Chorsusida joylashgan bo'lib, shaharning eng katta va asosiy savdo markazi hisoblangan. Bu yerdagi maydonlar to'lig'icha savdo rastalari va karvonsaroylarni qamrab ogan bo'lib, aholi yashash uylariga ham joy qolmagan edi [23.42-44].

Buxoroda bu asosiy uchta bozordan tashqari yana ikkita kichikroq savdo markazlari mavjud bo'lib, biri Registon yaqinida, Buxoro arkinging janubiy devorlari yonida joylashgan Toqi tirkaron, ikkinchisi esa Registonning shimoliy-g'arbiy chekkasida, un bozori yonida joylashgan Toqi allofi edi. Ular joylashgan hudud yo'l bo'ylab o'rtnashgan bo'lib, bu yerlarda chorraha - Chorsular yo'q edi. Bu savdo markazlari - Toqi tirkaron Toqi allofi bozorlari XX asr boshlarida buzib tashlangan [13.44].

Buxoro bozorlari savdo rastalariga bo'lingan bo'lib, har bir maydon,

rastalar, tim va toqlar muayyan bir mahsulot bilan savdo qilishga ixtisoslashgan edi. Shunday holatni karvon saroylarda ham kuzatish mumkin edi, u yerda ham ayrim hollarda savdo rastalari shakllangan bo'lib, aksariyat hollarda bu savdo rastalarida mahsulotlar katta-katta hajmda va ko'plab miqdorda savdo qilinardi. Ko'pincha karvon saroylarda yirik savdogarlar ijara asosida doimiy savdo bilan shug'ullansalar, ayrim hollarda bunday yirik savdogarlar o'z karvonsaroylariga ham ega edilar [13.42].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro shahrida 20 ta kichik va 5 ta yirik usti yopiq bozor mavjud bo'lib, har biri ma'lum bir mahsulot turini sotish uchun moslashgan edi. Masalan, Toqi Telpakfurushon bosh kiyim sotish bilan shug'ullangan bo'lsa, Toqi Zargaronda 30 dan ziyod zargarlik do'koni va ustaxonalarida zeb-ziynat buyumlar tayyorlanib, sotilgan. Shuningdek, usti yopiq bozorlardan tashqari, rastalarda ma'lum bir mahsulotlar sotiladigan do'konlar bo'lgan. Buxoro shahri ko'chalaridan birida 150 ta chit, 40 ta atlas, baxmal, shoyi, boshqa aralash mollar sotiladigan 25 ta do'kon faoliyat yuritganligi to'g'risida malumotlar uchraydi [14.278-284].

Toqi telpakfurushon eng yirik savdo rastasi bo'lib, uning asosiy qismini kallapo'shfurushlar - do'ppido'zlar va telpakfurushlar - mo'ynali telpak sotuvchilar band qilgan. Toqi telpakfurushon rastasining bir yonida kitob bozori - yozuv qurollari hamda kitoblar bilan savdo qiluvchilar ham joylashgan bo'lib, uning ro'parasida ko'rpa savdosi bilan shug'ullanuvchilar, quyi qismida, rastaga tutash hududda esa qirqqa yaqin sarroflar joylashgan edi. Rastaning shimoliy qismida esa pichoqchilar o'rinishgan bo'lib, ularning pichoq yasovchi ustaxonalari ham shu yerda joylashgan edi [13.45].

Toqi sarrofon XIX asr oxirlariga kelgan vaqtda o'zining avvalgi ixtisoslashuvini yo'qotgan bo'lib, bu vaqtda asosan ipak mahsulotlari va ro'mol sotuvchilar savdo qiladigan joyga aylangan. Savdo rastalari bino ichidan ham tashqariga cho'zilgan bo'lib, Ark devorlarigacha bori tutashardi. Toqi tirkaron ham avvalgi ixtisoslashuvi, ya'ni yoy o'qlari va boshqa qurol-yarog'lar bilan savdosini butunlay to'xtatgan bo'lib, bu yerda chitfurush savdogarlar o'rinishgan

edi. Faqatgina Toqi allofi bozori o‘z ixtisoslashuvi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatib, bu yerda un savdosi amalga oshirilar edi [13.45].

Buxoro amirligi bozorlarida narxlarning belgilanishi hamda tarozi va toshlarining to‘g‘riligi qattiq nazorat qilingan. Agar savdogar yoki sotuvchi xaridorning xaqiga xiyonat qilsa yoki tosh-tarozidan urib qolsa, bunday kishilar qattiq jazolangan, aksariyat hollarda yarim yalang‘och holda aravaga o‘tkazilib, bozor oralatib olib yurilgan va qilgan xatolari uchun tavba qilishga majbur etilgan.

Amirlikda savdo-sotiq ishlari yanvar oyidan may oyigacha qizg‘in pallaga kirgan davr hisoblangan. Bu vaqt davomida Rossiya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Tibet va boshqa qo‘shni davlatlardan savdogarlarning kirib kelish oqimi kuchaygan. Buxoro shahrida chet ellik savdogarlarning savdo mollarini joylashtirish uchun o‘ndan ortiq karvonsaroylar xizmat ko‘rsatgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, Buxoro bozorlari qatorida timlar – maxsus barpo qilingan binolarga joylashgan savdo joylari ham alohida o‘rin tutgan. Ular orasida eng yirigi XVI asrda shayboniylar sulolasiga mansub Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan barpo etilgan tim - Abdullaxon timi alohida o‘rin tutadi. Tim – to‘g‘ri burchakli va ko‘p gumbazli yirik bino inshooti bo‘lib, binoning devorlari bo‘ylab yuzdan ortiq yog‘ochdan qurilgan kichik do‘konlar joylashtirilgan. Bunday do‘konlarda tovarlar dvorga o‘rnatilgan peshtaxtalarga joylashtirilgan bo‘lib, yerga qurilgan sufa osti esa kichik omborcha vazifasini bajargan. Timda beshta yo‘lak mavjud bo‘lib, ularning uchasi asosiy katta ko‘chaga olib chiquvchi eshiklarga tutashgan. Abdullaxon timida parcha, duxoba, ipak, shuningdek, bo‘z va boshqa fabrika mahsulotlari kabi eng qimmatbaho matolar bilan savdo qilingan. Keyingi o‘rinda Timi safed – Oq tim bozori turgan. Bu yerda asosan dafn marosimlari uchun zarur bo‘ladigan matolar bilan savdo qilingan, matolar asosan oq rangda bo‘lganligi sababli tim nomi ham shunga mos ravishda nomlangan. Oq timda shuningdek, chit, doka (dokayi g‘ulomjoniy) va boshqa shunga o‘xshash matolar ham sotilgan [13.46].

Buxoro bozorlarida bo‘lgan sayyoh A.Vamberining bozorlar haqidagi dastlabki taasurotlari haqida quyidagilarni o‘qish mumkin: “Buxorodagi bozorida

ajnabiylar e'tiborini tortadigan holat mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'lib, ular orasida "olacha" deb nomlangan paxta tolasidan zich qilib to'qilgan rangli yo'l-yo'l matolarni, ipakdan tayyorlangan yengil va nafis ro'mollardan tortib nisbatan og'irroq adraslargacha ko'rsatib o'tish mumkin. Ayniqsa, Buxoro bozorlarida o'ta sifatli, san'at asarlari darajasida tayyorlangan kamarlar, oyoq kiyimlari kabi charm mahsulotlari ham ko'p. Erkaklar va ayollar etiklari ham juda yaxshi ko'rinishda bo'lib, erkaklar etiklari baland poshnali bo'lib, uch tomoniga qarab torayib boradi, ayollar etiklari esa ko'pincha eng nozik ipak kashtalar bilan bezatilgan. Shuningdek, bozor rastalarida hamda do'konlarda ko'plab yorqin ranglardagi burama kiyimlar juda ko'pligini ham eslatib o'tmaslik mumkin emas. ... Bularning barchasi mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari va ularning barchasi juda arzon, shuning uchun Buxoro kiyim-kechak bozoridan Xitoydan Tatariyagacha bo'lgan barcha e'tiqoddagi xalqlar xos kiyimlarni topish mumkin. Cho'llardagi qozoqlar [15.85], qipchoqlar va qalmoqlar ham odatda Buxoro bozorlariga tashrif buyurib, "ot terisidan tayyorlangan qo'pol kiyimini yengil yaktakka ayirboshlab quvonadi", ya'ni chorvador aholi ham o'zlarining charm mahsulotlarini kiyim-boshlarga almashtiradilar. Bu er uning uchun sivilizatsiyaning eng yuksak darajasi, ya'ni Buxoro - ham Parij, ham Londondir" [15.85-86].

4. XULOSA.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, Buxoro amirligining ichki savdo va iqtisodiy munosabatlarida bozorlar alohida o'ringa ega bo'lgan, bozorlarda aholining kundalik turmushi va ijtimoiy hayoti uchun zarur bo'ladigan barcha mahsulotlarni topish mumkin bo'lgan va ularning savdosi uchun alohida ixtisoslashgan bozorlar, rastalar, timlar, toqlar kabi savdo markazlari tashkil etilgan. Bozorlar nafaqat savdo munosabatlarini amalga oshirgan, balki ularga bo'lgan ehtiyoj hajmi va me'yorlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy sohaning ahvoli, pul muomalasi, hunarmandchilik ishlab chiqarish kabilarning tartib solib turilishida ham muhim o'rin tutgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). – Toshkent: “Navro’z “, 2021. 145-147- betlar.
2. Эшов Б Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. 302-303-б
3. Солихов М.А. История становления и развития водного законодательства в Таджикистане. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Душанбе. 1993. – 25 с.
4. Розинов А.Ш. Кустарно-ремесленное производство Восточной Бухары конца XIX - начала XX вв. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе. 1993. – 20-21 с.
5. Турсунова Г.Н. История возникновения и развития капиталистической мануфактуры в Средней Азии. Дисс. ... канд. эконом. наук. – Душанбе. 2009. – 4 с.
6. Мохаммадреза Хамеди. Политические, экономические и культурные преобразования в Средней Азии в XIX - начале XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе. 2013. – 154 с.
7. Исломов С. Экономическая система восточного феодализма и ее отражение в трудах таджикских мыслителей. дисс. ... док. ист. наук. – Душанбе. 2000. – 350 с.
8. Дубовицкий В.В. История формирования системы геополитических взаимоотношений России и Средней Азии в период 1700-2002 гг. Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Душанбе. 2004. – 374 с.
9. Давронов Хушвахтшо. Изменения в экономике Бухарского эмирата в период протектората России (1868-1917 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе. 1990. – 25 с.
10. Каюмова Х.А. Народная метрология и хронология таджиков Каратегина, Дарваза и Западного Памира XIX - начала XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе. 2009. – 163 с.
11. O'zbekiston tarixi. R.Murtazayeva tahr. ost. Toshkent, 2005. 253-b.
12. Негматов Д.Н., Мирзоев М.Н. Состояние торговли в Бухарском эмирата в середине XIX века по материалам А.Бёрнса./ Вестник педагогического университета. №.3.2019. Стр.231-236.
13. Сухарева О.А. Бухара. XIX-начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). Москва. “Наука”, 1966. Стр.42-44.
14. Ҳайдаров З. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг Россия билан олиб борган савдо алоқалари тарихидан. / Жамият ва инновациялар. 2024 йил 3-сон. 278-284-бетлар.
15. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. М. Восточная литература. 2003. Стр.85-86.